



ORIENTFINANSBANK

«OFB Kredit kartasi!» promo-aksiya qoidalari.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu qoidalar «OFB Kredit kartasi!» promo-aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatini belgilaydi.

1.2. **Aksiya o'tkaziladigan hudud:** «Orient Finans» XATB tizimi doirasida, O'zbekiston Respublikasi hududida.

1.3. **Aksiya o'tkazish muddati:** Aksiya 2026 yil 25 martdan 2026 yil 25 noyabrgacha o'tkaziladi.

2. Aksiya Ishtrokchilari

2.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin, bundan Orient Finans Bank xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek ushbu aksiyani reklama qilgan shaxslar mustasno.

2.2. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchining ushbu qoidalarga to'liq roziligini anglatadi.

2.3. Qoidalarga rioya qilinmagan taqdirda, ishtrokchi Aksiyada ishtrok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtrokchilar Aksiya davomida ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtrok etish shartlari

3.1 Aksiya ishtirok etish tartibi;

Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz quyidagi shartlarni bajarishi lozim:

- OFB mobil ilovasini yuklab olishi;
- Ilovada identifikatsiyadan o'tishi;
- OFB mobil ilovasi orqali kredit kartani buyirtma berish;
- Kartani qabul qilishi;
- Ushbu kredit kartadan 2 000 000(ikki million) so'm miqdorida tranzaksiya amalga oshirish talab etiladi. Ushbu summa bir martalik yoki bir nechta tranzaksiyalar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Muhim, mijozlar tranzaksiyalar soniga qaramasdan bir bosqichda bir marta ishtrok etadi. Keyingi bosqichda ishtrok etish uchun belgilangan shartlarni bosqich muddatida bajargan holda ishtrok etishiga xaqli.

4. Sovrin Jamg'armasi

4.1 Aksiya doirasida xar oyda 50 nafar g'olib uchun 1 000 000 so'm miqdorida pul mukofoti o'yinlari o'tkaziladi. Jami 5 ta bosqich bo'lib, ular 2026 yil 25 martdan 2026 yil 25 noyabrgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Jami g'oliblar soni - 250 nafar mijoz. Yutilgan pul mablag'lari mobil ilovadagi elektron hamyonga o'tkazib beriladi.

4.2 G'oliblar sovrinni uning qiymatiga teng bo'lgan biror tovarni sotib olish orqali almashtirishni talab qilishga, shuningdek qo'shimcha to'lov yoki qiymat farqini qaytarish sharti bilan sovrinni boshqa yuqori yoki past qiymatdagi sovringa almashtirishga haqli emaslar.

5. Promo-aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlarni o'ynash jarayoni

5.1. 4.1.- ko'rsatilgan yutuqli o'yinning ishtirokchilari deb aksiya shartlarini bajargan va quyida ko'rsatilgan davrda tranzaksiyalarni amalga oshirgan kredit karta egalari hisoblanadi.

1 bosqich 25.03.2026 yildan - 25.06.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
50 nafar g'oliblar 20.07.2026 yilga qadar aniqlanadi.

2 bosqich 26.06.2026 yildan - 25.07.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
50 nafar g'oliblar 20.08.2026 yilga qadar aniqlanadi.

3 bosqich 26.07.2026 yildan - 25.08.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
50 nafar g'oliblar 20.09.2026 yilga qadar aniqlanadi.

4 bosqich 26.08.2026 yildan - 25.09.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
50 nafar g'oliblar 20.10.2026 yilga qadar aniqlanadi.

5 bosqich 26.09.2026 yildan - 25.10.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)
50 nafar g'oliblar 20.11.2026 yilga qadar aniqlanadi.

5.2. Bank Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, Aksiya o'tkazishda bahsli holatlar bundan mustasno.

5.3. Sovrinlar g'oliblari maxsus Random.org dasturi yoki shunga o'xshash tasodifiy raqamlar yaratish dasturlari orqali aniqlanadi.

5.4. Aksiyada ishtirok etish – ishtirokchilar o'z ism, sharflari, fotosuratlarini va boshqa ma'lumotlarini tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday qo'shimcha to'lovsiz qo'llashga rozilik berishini anglatadi.

5.5. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi va bu o'zgarishlar qo'llanilishidan 3 (uch) ish kuni oldin saytida e'lon qiladi. Bank sovg'alar ro'yxati va ularning miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchiga Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki boshqa yo'qotishlarni qoplamaydi.

5.6. Bank sovg'adan foydalanish davomida g'olibning sog'lig'i (hayoti) ga yoki uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.7. Aksiyani o'tkazish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va ishtirokchi o'rtasida ixtiyoriy muzokara olib boorish yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo sud orqali ko'rib chiqiladi.

5.8. Bank shubhali yoki soxta tranzaksiyalar aniqlangan taqdirda, ishtirokchini sababini tushuntirmasdan aksiyadan chetlashtirish huquqiga ega.

5.9. Aksiya g'oliblari www.ofb.uz, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.10. Tashkilotchi ishtirokchining Aksiya shartlariga rioya qilmasligi oqibatlarini uchun javobgar emas.

6. Aksiya ishtirokchilariga aksiya shartlari, aksiyani to'xtatish yoki muddatidan oldin yakunlash to'g'risida xabar berish tartibi

6.1. Aksiya haqida xabarnomalar qisqa metrajli roliklar monitorlar, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali beriladi.

6.2. Batafsil ma'lumot bankning rasmiy www.ofb.uz sayti orqali elon qilinadi.

6.3. Promo-aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotni quyidagi raqam orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99.

6.4. Agar Aksiya muddatidan oldin to'xtatilsa, muddatlari uzaytirilsa yoki qoidalarga o'zgartirishlar kiritilsa, www.ofb.uz sayti orqali elon qilinadi.

